

Marg'ilon shahar hokimligi rahbar hodimlarining jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarini shaxsiy qabul qilish GRAFIGI

F.I.Sh. Lavozimi	Xafta kunlari Vaqt	Tashkilot pochta manzili
Ubaydullaev Mirzoxid Murodilovich Marg'ilon shahar hokimi	Seshanba-Payshanba 14-00dan 16-00gacha	Marg'ilon shahar Mustaqillik ko'chasi 495-uy
Gafurov Iqboljon Ilxomovich Marg'ilon shahar hokimining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari	Seshanba 10-00dan 12-00gacha	Marg'ilon shahar Mustaqillik ko'chasi 448 a-uy
Pirmatov Raxmatillo Ergashevich Marg'ilon shahar hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik bo'yicha o'rinbosari	Chorshanba 14-00dan 16-00gacha	Marg'ilon shahar Mustaqillik ko'chasi 448 a-uy
Abdullaev Azizbek Abdukaxarovich Marg'ilon shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari	Juma 14-00dan 16-00gacha	Marg'ilon shahar Mustaqillik ko'chasi 448 a-uy
Ergasheva Dilnoza Mamurovna Marg'ilon shahar hokimi o'rinbosari, Xotin-qizlar qo'mitasi raisi	Payshanba 10-00dan 12-00gacha	Marg'ilon shahar Mustaqillik ko'chasi 448 a-uy

Marg'ilon shahar hokimligining rasmiy web sayti www.margilan.uz

Marg'ilon shahr hokimligi manzili: **Farg`ona viloyati, Marg'ilon shahar Mustaqillik ko`chasi 448 uy.**

151100 Ishonch telefoni: 0 (373) 253-30-88

Elektron pochta: info@margilan.uz

E-xat pochta: margilon.sh@exat.uz

Marg'ilon shahri ming yillardan beri o'zining usta-hunarmandlari, olimu fuzalolari bilan dunyoga mashhurdir. 2007-yil YUNESKO qaroriga binoan shahrning 2000 yillik tantanalari o'tkaziladi.

1. Shahar tashkil topganligi haqida ma'lumot

Shahar markazi - Marg'ilon shahri.

2. Shahar joylashganligi haqida ma'lumot.

Shahar Farg'ona vodiysining janubiy qismida, Oloy tog'lari etagida joylashgan. Farg'ona shahridan 10–12 km shimoldada, 475 m balandlikda joylashgan, Shahar Farg'ona shahri, Toshloq, Qo'shtepa, Farg'ona tumanlari bilan chegaradosh. Umumiy yer maydoni 38.5 kv.km ni tashkil qiladi.

3. Aholi haqida ma'lumot.

Aholisi 210,2 ming kishi. Shaharda 30 dan artiq millat va elatlar istiqomat qiladi. Jumladan, 91,9 % o'zbeklar, 3,1 % ruslar , 1,4 % tatarlar.

4. Me'moriy yodgorliklar.

Shaharda Pir Siddiq majmui ("Kaptarlik", 18-asr oʻrtalari), Xoʻja Magʻiz maqbarasi (18-asrning birinchi yarmi), Chokar, Toronbozor masjidlari (20-asr boshlari), Saidahmad Xoja Eshon madrasasi (19-asr oxiri) va boshqa saqlanib qolgan. Y. Oxunboboyev memoriy muzeyi, madaniyat va sanʼat muzeyi, "Al Hidoya" xotira majmui mavjud

5. Qoʻshma korxonalar va sanoat korxonalar soni.

Shaharda 5 ta yirik sanoat korxonalari mavjud boʻlib bulardan, "Barj internatsional compity" MCHJ, "Nur infex" oʻzbek qoʻshma korxonasi, "Toʻyonai" oʻzbek qoʻshma korxonasi, "Asia fruitmega" Oʻzbekiston-Shvetsariya qoʻshma korxonasi, "Expocolor Printex" Oʻzbekiston-Buyuk Britaniya qoʻshma korxonasi.

6. Yangi yaratilgan ishchi oʻrinlar.

Shaharda yangi yaratilgan ishchi oʻrinlar soni - 2821 ta
2017-04-28 12:14:26